

**SCIENCE
PROBLEMS.UZ**

ISSN 2181-1342

 Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

**Ijtimoiy-gumanitar
fanlarning dolzARB
muammolari**

Jild 3, Son 7/S
2023

SCIENCEPROBLEMS.UZ

**ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ
ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ**

№ S/7 (3)-2023

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

ТОШКЕНТ-2023

БОШ МУҲАРРИР:

Исанова Феруза Тулқиновна

ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ:

07.00.00-ТАРИХ ФАНЛАРИ:

Юлдашев Анвар Эргашевич – тарих фанлари доктори, сиёсий фанлар номзоди, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Мавланов Укташ Махмасабирович – тарих фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Хазраткулов Аброр – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети.

08.00.00-ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ:

Карлибаева Раја Хожабаевна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Худойқулов Садирдин Каримович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Азизов Шерзод Ўкташович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Божхона институти;

Арабов Нурали Уралович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Холов Актам Ҳатамович – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Шадиева Дилдора Ҳамидовна – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент в.б., Тошкент молия институти;

Шакаров Қулмат Аширович – иқтисодиёт фанлари номзоди, доцент, Тошкент ахборот технологиялари университети

09.00.00-ФАЛСАФА ФАНЛАРИ:

Ҳакимов Назар Ҳакимович – фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Яҳшиликов Жўрабой – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Ғайбуллаев Отабек Мухаммадиевич – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Ҳошимхонов Мўмин – фалсафа фанлари доктори, доцент, Жиззах педагогика институти;

Носирходжаева Гулнора Абдукахаровна – фалсафа фанлари номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Турдиев Бехруз Собирович – фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Бухоро давлат университети.

10.00.00-ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Ахмедов Ойбек Сапорбаевич – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Кўчимов Шуҳрат Норқизилович – филология фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Салаҳутдинова Мушарраф Исамутдиновна – филология фанлари номзоди, доцент, Самарқанд давлат университети;

Кучкаров Рахман Урманович – филология фанлари номзоди, доцент в/б, Тошкент давлат юридик университети;

Юнусов Мансур Абдуллаевич – филология фанлари номзоди, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Сайдов Улугбек Арипович – филология фанлари номзоди, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси.

12.00.00-ЮРИДИК ФАНЛАР:

Ахмедшаева Мавлюда Ахатовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Мухитдинова Фирюза Абдурашидовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Эсанова Замира Нормуротовна – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган юрист, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳамроқулов Баҳодир Мамашарифович – юридик фанлар доктори, профессор в.б., Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети;

Зулфиқоров Шерзод Ҳуррамович – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Жамоат хавфизилиги университети;

Хайитов Хушвақт Сапарбаевич – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси

Президенти хузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Асадов Шавкат Файбуллаевич – юридик фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти хузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Утемуратов Махмут Ажимуратович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Сайдуллаев Шахзод Алиханович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Юсупов Сардорбек Баходирович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳакимов Комил Бахтиярович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Амирнов Зафар Актамович – юридик фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD), Ўзбекистон Республикаси Судъялар олий кенгаши хузуридаги Судъялар олий мактаби;

Жўраев Шерзод Юлдашевич – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Бабаджанов Атабек Давронбекович – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Раҳматов Элёр Жумабоевич – юридик фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Тошкент давлат юридик университети.

13.00.00-ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ:

Хашимова Дильдархон Уринбоевна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ибрагимова Гулнора Хавазматовна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Закирова Феруза Махмудовна – педагогика фанлари доктори, Тошкент ахборот технологиялари университети хузуридаги

педагогик кадрларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тармоқ маркази; Тайланова Шохида Зайневна – педагогика фанлари доктори, доцент.

19.00.00-ПСИХОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Каримова Васила Маманосировна – психология фанлари доктори, профессор, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Ҳайитов Ойбек Эшбоевич – Жисмоний тарбия ва спорт бўйича мутахассисларни қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш институти, психология фанлари доктори, профессор

Умарова Навбаҳор Шокировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети, Амалий психологияси кафедраси мудири;

Атабаева Наргис Батировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Қодиров Обид Сафарович – психология фанлари доктори (PhD), Самарқанд вилоят ИИБ Тиббиёт бўйими психологик хизмат бошлиғи.

22.00.00-СОЦИОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Латипова Нодира Мухтаржановна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири;

Сеитов Азамат Пўлатович – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети;

Содиқова Шоҳида Марҳабоевна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон халқаро ислом академияси

23.00.00-СИЁСИЙ ФАНЛАР

Назаров Насридин Атақулович –сиёсий фанлар доктори, фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент архитектура қурилиш институти;

Бўтаев Усмонжон Хайруллаевич –сиёсий фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири.

ОАК Рўйхати

Мазкур журнал Вазирлар Маҳкамаси хузуридаги Олий аттестация комиссияси Раёсатининг 2022 йил 30 ноябрдаги 327/5-сон қарори билан тарих, иқтисодиёт, фалсафа, филология, юридик ва педагогика фанлари бўйича илмий даражалар бўйича диссертациялар асосий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхати (Рўйхатга) киритилган.

Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари электрон журнали 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.
Муассис: "SCIENCEPROBLEMS TEAM"
масъулияти чекланган жамият.

Таҳририят манзили:

Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-үй. Электрон манзил:
scienceproblems.uz@gmail.com

Телеграм канал: https://t.me/scienceproblems_uz

МУНДАРИЖА

07.00.00 – ТАРИХ ФАНЛАРИ

| | |
|---|-------|
| <i>Холлиев Азизбек Гўзалович</i> РОССИЯ-АМЕРИКА САВДО АЛОҚАЛАРИ ТАРИХИДАН (XVIII АСР ЎРТАЛАРИ – XIX АСР БИРИНЧИ ЯРМИ) | 7-13 |
| <i>Юлдашев Сайданварбек Баҳромжон ўғли</i> ФАРГОНА СОМОНИЙЛАРИ ТАРИХИДАН ЛАВҲАЛАР | 14-25 |
| <i>Бобоҷонов Шавкат Улуғбековиҷ</i> ФЕНОМЕН БАҲАУДДИНА НАҚШБАНДИ В ПАЛОМНИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЕ НАСЕЛЕНИЯ БУХАРСКОГО ОАЗИСА | 26-31 |
| <i>Raxmonqulova Masuma Mengniqulovna</i> ZARDUSHTIYLIK DINIGA OID YOZMA MANBALARNING ARXEOLOGIK MANBALARDA AKS ETISHI | 32-39 |
| <i>Isarov Umidulla Isar o'g'li</i> “ILK KO'CHMANCHILAR” ATAMASI MUAMMOSI | 40-45 |
| <i>Исламов Шарифжон Ганиджанович</i> “КЕНГАШ” ЖУРНАЛИДА СИЁСИЙ, ДИНИЙ ВА ИЖТИМОИЙ МУАММОЛАРНИНГ ЁРИТИЛИШИ | 46-54 |
| <i>Фарманова Гулнара Комилевна</i> АРХЕОЛОГИЧЕСКИЕ РАБОТЫ И ИССЛЕДОВАНИЯ НА ТЕРРИТОРИИ САМАРКАНДСКОГО СОГДА В ПЕРВОЙ ПОЛОВИНЕ ХХ ВЕКА (НА ПРИМЕРЕ РАБОТ Г.В.ГРИГОРЬЕВА И А.И.ТЕРЕНОЖКИНА)..... | 55-64 |

8.00.00 – ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ

| | |
|--|--------|
| <i>Ablazov Nurillo Xusanboyevich</i> QURILISH KORXONALARIDA DAROMAD VA XARAJATLARNI TAN OLISHNING XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI | 65-71 |
| <i>Kunduzova Kumrixon Ibragimovna</i> ONLAYN MOLIYAVIY XIZMATLARNING XUSUSIYATLARI | 72-79 |
| <i>Пардаев Мамаюнус Қаршибаевич, Бабаназарова Севара Абдиназаровна</i> ИНСОН КАПИТАЛИ ТУШУНЧАСИННИГ МАЗМУНИ, ТАРКИБИ ВА УНИ ИФОДАЛОВЧИ КЎРСАТКИЧНИ АНИҚЛАШ ЙЎЛЛАРИ | 80-90 |
| <i>Norkochkarov Abdulaziz Ziyadullaevich</i> PRACTICAL ASPECTS OF CREATING COST ESTIMATE IN BUDGET ORGANIZATIONS | 91-98 |
| <i>Темиров Шоҳруҳжон Пўлатхўжа ўғли</i> КИЧИК БИЗНЕС РИВОЖЛАНИШИ ОМИЛЛАРИ, ДАРАЖАЛАРИ ВА БАРҚАРОРЛИГИДА ИННОВАЦИОН БОШҚАРИШ САМАРАДОРЛИГИ (ФАРГОНА ВИЛОЯТИ МИСОЛИДА)..... | 99-108 |

09.00.00 – ФАЛСАФА ФАНЛАРИ

| | |
|---|---------|
| <i>Raximova Dildora Abzalovna</i> GLOBAL MUAMMOLAR FALSAFASI | 109-114 |
|---|---------|

Искандаров Жаҳонғир Шарипович
ИНТУИЦИЯ ВА УНИНГ ФАЛСАФИЙ ТАЛҚИНЛАРИ 115-121

Xadjamuratova Matlyuba Xashimovna
YOSHLARNI IJTIMOIY HIMOYA QILISHNING INNOVATSION XUSUSIYATLARI 122-128

10.00.00 - ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ

Axmedov Oybek Saparbaevich
ИНГЛИЗ ВА ЎЗБЕК ТИЛЛАРИДА СОЛИҚ-БОЖХОНА ТЕРМИНОЛОГИЯСИДА АНТОНИМИЯ
ХОДИСАСИНИНГ ЎРНИ 129-137

Rasulova Gulbahor
AYRIS MYORDOK IJODIGA ILMIY-NAZARIY YONDASHUVLAR 138-143

Norqobilov Sanjar Rahmat o'g'li
КОГНИТИВ ЛИНГВИСТИКА ФАНИНИ ТАQQOSLASHNING UMUMIY TENDENSIYALARI 144-149

*Bobojonov Dilshod Jumaqul ugли, Halilova Shohista Muhammadi qizi, Umarova Maftunbonu
Umidjanovna, Turdaliyeva Shahnoza O'ktamovna, Gulnora Xolmurodova Sattorovna*
LINGUISTIC FEATURES OF THE MODERN NEWSPAPER LANGUAGE: ANALYSIS AND
RESEARCH 150-159

*Sodikova Bakhtigul Ibodullaevna, Berdiyev Suhrob Sobirovich, Togaev Bobur Erkin ugли, Hafizov
Sarvar Boborajab ugли, Maxsumov Rustam Maxamadiyevich*
CHARACTERISTICS OF THE NEO-VICTORIAN NOVEL IN THE "FRENCH LIEUTENANT'S
WOMAN" BY JOHN FOWLES 160-166

Xolmuxamedov Baxtiyor Farxodovich
О'ЗБЕК ТИЛИДА YARATILGAN CHAPPA (TERS) LUG'ATLAR HAQIDA 167-176

12.00.00 - ЮРИДИК ФАНЛАР

Tўраев Сардор Абдихаким ўғли
БАЪЗИ ХОРИЖИЙ МАМЛАКАТЛАРДА ИНТЕРНЕТ ТАРМОГИДАН ФОЙДАЛАНИБ СОДИР
ЭТИЛАДИГАН ТАЛОН-ТОРОЖ ЖИНОЯТЛАРИ УЧУН ЖАВОБГАРЛИК
МАСАЛАЛАРИ 177-187

13.00.00 - ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ

Kaziyeva Turg'unoy Tursunbayevna
MATNNING GERMENEVTIK KONTSEPTSIYASI VA KOGNITIV GERMENEVTIKA 188-192

Xaydarov Azamjon Asqarovich
“OZIQ OVQAT TEXNOLOGIYASI YO'NALISHI” TALABALARINI UMUMIY KIMYO KURSINI O'QITILISHDA
INTEGRATIV TAKOMILLASHTIRISHNING ILMIY METODIK ASOSLARI 193-198

Allamurodova Sabohat Ibodullayevna
ADABIY TA'LIM TIZIMIDA KULTUROLOGIK YONDASHUV 199-204

Gaynullaeva Yulduz Anvarovna
PROFESSIONAL AND AESTHETIC APPROACH TO TYPES OF WOMEN'S CLOTHING 205-210

Xadjamuratova Matlyuba Xashimovna,
Tarix fanlari nomzodi, dotsent,
Andijon davlat tibbiyot instituti

YOSHLARNI IJTIMOIY HIMOYA QILISHNING INNOVATSION XUSUSIYATLARI

Annotatsiya. Maqolada yoshlarni ijtimoiy himoya qilish zarurati, ijtimoiy himoya yo'nalishlari, davlat siyosatining innovatsion xususiyatlari bayon etilgan.

Kalit so'zlar: yoshlar, ijtimoiy himoya, davlat, siyosat, qonun, huquq, jamiyat, islohot.

Khadjamuratova Matlyuba Khashimovna,
Candidate of historical sciences, associate professor,
Andijan State Medical Institute

INNOVATIVE CHARACTERISTICS OF YOUTH SOCIAL PROTECTION

Abstract. The article describes the need for social protection of young people, directions of social protection, innovative features of state policy.

Key words: youth, social protection, state, politics, law, law, society, reform.

Хаджамуратова Матлюба Хашимовна,
Кандидат исторических наук, доцент,
Андижанский государственный медицинский институт

ИННОВАЦИОННЫЕ ХАРАКТЕРИСТИКИ СОЦИАЛЬНОЙ ЗАЩИТЫ МОЛОДЕЖИ

Аннотация. В статье описаны необходимость социальной защиты молодежи, направления социальной защиты, инновационные особенности государственной политики.

Ключевые слова: молодежь, социальная защита, государство, политика, право, право, общество, реформа.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SP1342V3I7/SY2023N15>

Kirish. Dunyoda aholi soni ortib, globallashuv jarayonlari tezlashmoqda. "2 milliard nafardan"[1] ziyod yoshlarning zamonaviy jamiyatga integratsiyalashuvi hamda intellektual salohiyatining insoniyat taraqqiyotiga ta'siri tahlil qilinsa, yoshlarni ijtimoiy himoya qilishning global va dolzarblik ahamiyati yanada ortadi. Bu borada BMT Bosh Assambleyasi tomonidan yoshlarga e'tiborni kuchaytirish, ularni ijtimoiy himoya qilish global mavzu sifatida e'tirof etilib, huquqiy-tashkiliy tartibi belgilangan.

Mavzuning dolzarbligi va hozirgi holati. Yoshlarni ijtimoiy himoya qilishning metodologik jihatlarini tahlil qilish darkor. Yoshlarni zamonaviy jamiyatga integratsiyalashuviga, hayotda o‘z o‘rnini topishiga ko‘maklashish, qizg‘in hayotdan chetga chiqib qolishini oldini olish, ularni ijtimoiy himoya qilishning maqbul yechimini topishga taalluqli xalqaro huquq normalarini respublika qonunchiligiga implementatsiya qilish dolzarb masala.

O‘zbekistonda yoshlarni jismonan sog‘lom, ma’nан yetuk etib tarbiyalash siyosatning eng muhim masalasiga aylandi. Prezident Sh. Mirziyoev: – “...har qanday jamiyat taraqqiyotida uni kelajagini ta’minkaydigan yosh avlodning sog‘lom va barkamol bo‘lib voyaga yetishi hal qiluvchi o‘rin tutadi. Shu sababli biz islohotlarimiz ko‘lami va samarasini yanada oshirishda har tomonlama yetuk, zamonaviy bilim va hunarlarni puxta egallagan, azmu shijoatli, tashabbuskor yoshlarimizga tayanamiz”[2], deb ta’kidlaydi.

Tajriba qismi (tadqiqotni amalga oshirish). Yoshlarni ijtimoiy himoya qilish davlatning strategik yo‘nalishiga, ya’ni demokratik, huquqiy davlat, adolatli fuqarolik jamiyatini shakllantirish bilan chambarchas bog‘liq. Shuningdek, yoshlarni ijtimoiy himoya qilinishi darajasi ushbu davlatda demokratik prinsiplarni amaliyatga qay darajada joriy etilishi, ijtimoiy institutlarning faolligi, qonun ustuvorligi va albatta jamiyat a’zolarining iqtisodiy va ma’naviy salohiyatiga ham bog‘liq. Bu nuqtai nazardan O‘zbekistonda yoshlar himoyasi siyosatning bir bo‘lagiga aylandi.

Yoshlarni ijtimoiy himoya qilish – keng ma’noda ijtimoiy himoya tizimini jahon ijtimoiy himoya makoni (o‘chog‘i)ga integratsiyalashuvi jarayonlarida asrlar davomida shakllanib kelgan milliy xususiyatlarga tayanib, yoshlarga barqaror makonni yaratib berish kontekstida qonunchilik va qonuniylik uyg‘unligini ta’milanishi; tor ma’noda yoshlarni depressiya holatga tushib qolishdan himoyalash, kambag‘allik qurshovida qolgan qismini, shuningdek ularning marginal guruhini “statsionar” va ma’naviy davolash, barqaror hayotga yo‘naltirilgan siyosatdir.

O‘zbekistonda yoshlarni ijtimoiy himoya qilishning innovatsion yo‘nalishlari quyidagilarda o‘z aksini topgan:

- - yoshlarni ta’limning barcha turlaridan foydalanishiga yo‘l ochib berish;
- yoshlarni ma’lum kasb-hunar egallahash va foyda olishlariga sharoit yaratish;
- yoshlarni bandligini ta’minalash, mehnat migratsiyasini tartibga solish;
- — yoshlarni sog‘ligini saqlash muammolarini yechimini topish, ona va bola himoyasi;
- yoshlarni hayoti, turmush sifatini yaxshilash;
- yoshlarga toza ekologik muhitda yashash huquqini ta’minalash,
- madaniyat va sportni rivojlantirib, yoshlarni shug‘ullanishlarini ta’minalash, iqtidorlarini namoyon etishlariga sharoit yaratish;
- yoshlarni manzilli ijtimoiy himoya qilish;
- yoshlarni uy-joy bilan ta’minalash, yo‘l qurilishi, obodonlashtirish, kommunal xo‘jalikni rivojlantirish;
- ushbu sohalarda va yoshlar hayotida korrupsiyani oldini olish.

Yoshlarni ijtimoiy himoya qilish – ijtimoiy himoyaning muhim tarkibiy qismi bo‘lib, uning qay darajada amalga oshirilishi davlat tomonidan o‘rnatalgan tartib-taomillar asosida jamiyatdagi milliy, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, ma’naviy yuksalish darajasi bilan bog‘liq.

Jamiyatning intellektual salohiyati inson, ayniqsa yoshlar qadrini ko'tarishga, oliy qadriyat sifatida uning himoyasiga mas'uliyatni oshishiga olib keladi.

Shuningdek, mamlakatdagi qonunchilikning rivojlanganlik darajasi va unda fuqarolik jamiyatni institutlarining kafolati hamda ijobjiy faoliyati ham yoshlarni ijtimoiy himoya qilish ko'lамини kengaytiradi.

O'zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlarning huquqiy asoslari yuqoridagi barcha jarayonlarni o'zida qamrab olgan.

Yoshlarni jamiyatga ijtimoiylashuvi, uning bu jamiyatga daxldorlik hissini keltirib chiqaradi. Daxldorlik yoshlarning bolalikdan uzlusiz ta'lim-tarbiya, keng jamoatchilik ta'siri hamda kuzatuвлar natijasida boyib, charxlanib boradi va ixtiyoriy ravishda a'lo o'qish, namunali xulq, tirishqoqlik, maqsad sari intilish kabi amaliyot bilan namoyon bo'ladi.

Davlatning innovatsion siyosatidan maqsad barcha sohalarni jadal rivojlanishga yo'naltirgan holda jamiyat hayotida barqarorlikni ta'minlashdan iborat bo'lishi kerak.

Davlatning innovatsion siyosati – davlatning milliy hamda xalqaro innovatsion tajribalarni o'rganish, mamlakatdagi mavjud iqtisodiy va ijtimoiy resurslardan unumli foydalanish, fan, texnologiya, innovatsion siyosatni uyg'unlikda rivojlanishini ta'minlash, jamiyatning intellekt qobiliyatini ro'yobga chiqarishga zamin hozirlash orqali uni yuksak taraqqiyot makoniga aylantirish maqsadida yangidan-yangi g'oyalarni qonunchilikda joriy etish va shu asosda siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy hayotda ijobjiy natija yaratish qobiliyatidir.

O'zbekistonning huquqiy salohiyatini o'rganish asnosida quyidagi fikrga kelindi. Davlat siyosatining innovatsion xususiyatlari – yoshlarni ijtimoiy himoya qilishda islohotchi vazifasini bajarib, implementatsiya qiluvchi, integratsiyalashtiruvchi, professionallik, funksionallik, uyg'unlashtiruvchi, tashkiliy-hududiy yondashuv, qonunchilik va qonuniylik prinsipini samaradorligini oshiruvchi, hisobdorlik, generatorlik, regulatorlik, da'vat qiluvchi, proqnozlashtiruvchi, himoyalovchi, yaratuvchi-kashf qiluvchi, ko'maklashuvchi, motivatsiya beruvchi, rag'batlantiruvchi, qo'llab-quvvatlovchi, yuqori pog'onaga ko'taruvchi, tarbiyalovchi va boshqa vazifalarni bajarishda namoyon bo'ladi. Masalan:

- implementatsiya qiluvchi – yoshlarni ijtimoiy himoya qilishga oid xalqaro hujjalarni O'zbekiston qonunchiliga implementatsiya qilish;

- integratsiyalashtiruvchi – xalqaro huquq normalari va rivojlangan davlatlar tajribasini o'rganish orqali mamlakatimizda yoshlarni ijtimoiy himoya qilish tizimini jahon ijtimoiy himoya "o'chog"iga (makoniga) integratsiyalashuvini amalga oshirish;

professionallik – mavjud asosiy qonun va qonunchilikni mukammalligini ta'minlovchi, (qonunchilik qanchalik mukammal bo'lsa, natijadorligi ham samarali bo'ladi. Qonunchilik va qonuniylik ijtimoiy hayotning barcha jabhalarini qamrab olishi, noqonuniy harakatlarni oldi olinishiga yo'l ochadi).

funksionallik – qabul qilingan normalarni amaliyotga joriy etilishiga monitoring, tahlil qilish orqali kamchiliklarni bartaraf etish, masofadan boshqarish;

- uyg'unlashtiruvchi – yoshlar manfaatlarini umummilliy manfaatlar bilan uyg'unlashtirish;

tashkiliy-hududiy yondashuv – mamlakatni ma'muriy-hududiy tuzilishiga asoslanib, "quyi organlarning yuqori organlarga bo'ysunishi" tamoyili asosida qonuniylik darajasini aniqlash, kamchiliklarni bartaraf etish maqsadida chora-tadbirlar ko'rish;

- yoshlarni ijtimoiy himoya qilish tizimida qonunchilik va qonuniylik prinsipini samaradorligini oshirishga da'vat qiladi;

hisobdorlik – demokratik davlatda saylov asosida davlat boshqaruvi organlariga xalq tomonidan ishonch bildirilib saylangan nomzodlarni saylovchilarga hisob berish zarurati, saylovchilar tomonidan muddatidan oldin lavozimidan ozod etilish mas'uliyatini mavjudligi;

- regulyatorlik – davlat innovatsion siyosatini amalga oshirish orqali yoshlarni ijtimoiy himoya qilish jarayoniga boshchilik qiladi, jamiyatning rivojlanish jarayonini o'r ganadi, islohotlarni tashkil etadi, zaruriy qonuniy hujjatlar qabul qilish asosida jamiyatni boshqaradi;

- da'vat qiluvchi – yoshlarni yorqin kelajakka da'vat qiladi, davlat va nodavlat tashkilotlarini ijtimoiy sheriklik asosida yoshlarni "O'zbekistonni buguni va kelajagi turgagi" bo'lishi uchun barcha chora-tadbirlarni ko'rishga, yoshlarni ijtimoiy himoya qilishga da'vat etadi;

- prognozlashtiruvchi — jamiyatning rivojlanishini qaysi bosqichini bosib o'tayotgani, yoshlarning "demografik qiyofasi", jamiyatning imkoniyatlari, globallashuv jarayonlarning jamiyatga ta'siri masalasi va boshqalar prognozlashtirilib boriladi;

- himoyalovchi – yoshlarni ijtimoiy himoya qilishning eng maqbul chora-tadbirlarini ko'radi (oilani sog'lom turmush tarziga yo'naltirib, tug'ma nogironlikni oldi olinadi, kasb nogironligidan himoyalaydi, barqaror hayotga yo'naltiradi);

- yaratuvchi, kashf qiluvchi – yangi innovatsion g'oyalarni kashf qilgan holda yoshlarni ijtimoiy himoya qilish tizimini samaradorligini oshiradi;

- ko'maklashuvchi – yoshlarni jamiyatda yuksak axloqli, intellektual salohiyatli, ma'lum kasb egasi bo'lishi va boshqa iqtidorlarini namoyon qilib, jamiyatda o'z o'rnini topishiga ko'maklashadi, shuningdek, bu sohada davlat va nodavlat notijorat tashkilotlari (NNT)ning faoliyatiga yo'l ochadi, huquqlarini himoya qilinishiga ko'maklashadi;

- rag'batlantiruvchi – iqtidorli, fidoyi, faol, jasur, matonatli, intellektual salohiyatli yoshlarni rag'batlantirish orqali ularni yangidan yangi marralarni egallahlariga yo'l ochadi, iqtidorli yoshlarni "namuna" sifatida ko'rsatib, boshqalarni ibrat olishiga yo'naltiradi, shuningdek, yoshlarni ijtimoiy himoya qilish jarayonidagi jonbozlik ko'rsatayotgan faollarni ham rag'batlantirib boriladi;

- qo'llab-quvvatlovchi – nafaqat iqtidorlarni qo'llab-quvvatlaydi, balki ijtimoiy himoyaga o'ta muhtoj yoshlarni, ya'ni nogironligi borlarni, uyushmagan yoshlarni, xotin-qizlarni, voyaga yetmaganlarni qo'llab-quvvatlaydi;

- tarbiyalovchi – butun jamiyatni butun umr ta'lim olish prinsipi asosida "ta'lim-tarbiya uyg'unligini ta'minlash, bola, yoshlar tarbiyasiga barcha jamiyat a'zolarini vazifalarini ko'rsatib berish, mas'uliyat bilan yondashishni nazorat qilish, "hech qaysi bola ta'lim-tarbiya doirasidan chetda qolmasin" shiori ostidagi tizimni rivojlanтирish.

- hamkorlik – davlatlararo hamda milliy NNTlar bilan davlatning ijtimoiy sheriklik asosidagi hamkorligi.

Davlat siyosatining innovatsion xususiyatlari uning ichki va tashqi siyosatida namoyon bo'ladi. O'zbekistonning ichki va tashqi siyosati O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va uning asosida qabul qilingan konstitutsiyaviy qonunlar, qonunlar va normativ-huquqiy hujjatlar asosida amalga oshiriladi. Albatta, bu jarayonda qabul qilingan qonuniy hujjatlarning sifati va yoshlarni ijtimoiy himoya qilishga ijobjiy ta'siri katta ahamiyatga ega, ya'ni qonunchilik jarayonlarida qabul qilinayotgan qonuniy hujjatlarning sifatiga e'tiborni kuchaytirish talab

etiladi. Ikkinchidan, ularni amaliyotda to'la qo'llanilishi, ya'ni qonuniylik prinsipiga asoslanadi. Demak, yoshlarni ijtimoiy himoya qilishda davlat siyosatining innovatsion yondashuvi eng muhim ahamiyat kasb etadi. Davlat boshqaruvda bir necha qadam oldinda yurib, generatorlik vazifasini bajarishi, xalqaro tajribalarni o'rganishi va jamiyat a'zolaridan tushayotgan takliflarni ro'yobga chiqarishi zarur. Davlat boshqaruvida yoshlarni ijtimoiy himoya qilish masalasi doimo dolzarb bo'lib borishi, avvalo jamiyatni ijtimoiy himoya qilish, modernizatsiya qilish, xalqni har tomonlama yuqori pog'onaga olib chiqish orqali tashkil etilayotgan oilalarni bardavomligini, sog'lom muhitini ta'minlashga erishish, bu orqali dunyoga kelayotgan chaqaloqlarni "toza" muhitda ardoqlanib, ona-on va jamiyat, davlat bag'rida jismonan ham ma'nан unib-o'sishini ta'minlash mumkin. Bu jarayonlar ham davlat siyosatini innovatsion, bardavom, uzlusiz, bosqichma-bosqich amalga oshirib borilishi kerak bo'lgan ijobiy islohotlarining mevasi sifatida ro'yobga chiqadi. Albatta, jamiyatning har tomonlama "farovonligi" farzandlarimizning ijtimoiy himoyaning barcha ko'rinishlaridan bahramand bo'lishi uchun sharoit yaratadi. Yoshlarni iqtidorlarini namoyon etishlari uchun yaratilgan "poyandoz", albatta ularni keljakda bu jamiyatni yanada yuksaklikka ko'taruvchi g'oyalalar va ezgu-amallar bilan o'zini oqlaydi. Chunki xalqimizda naql bor: "nima eksang, shuni o'rasan", degan. Bugungi asosiy ishimiz, jamiyatimizni vayronkor, buzg'unchi g'oyalardan ozod etish, qonuniy hujjatlarda buzg'unchilik faoliyatiga cheklovlarini kengaytirish, barcha fuqarolarimizni yuksak ma'naviyat egasiga aylantirish, farzandlarimiz ongida vayronkor g'oyalarga nisbatan murosasiz munosabatini shakllantirish, kadrlarni sotilmaslik prinsipi asosida tarbiyalash.

Yoshlarni ijtimoiy himoya qilishda, ularni quyidagi guruhlarga bo'lish mumkin:

Birinchisi, yoshligidan bilimga, kasbga yo'naltirilgan, ma'lum bosqichlarni bosib o'tgan, yashovchan, o'rta va oliy ma'lumot va ma'lum fan sohasida yetarli bilim salohiyatiga ega bo'la olgan, hayotda o'z maqsadi, orzu-umidlari, unga yetishish yo'llarini yorqin tasavvur eta oladigan, ma'lum yutuqlarni qo'lga kiritishga erishgan yoshlar. Birinchi guruhdagilar davlat tomonidan bilim olishlari uchun yaratilgan imkoniyatlardan unumli foydalangan. O'zbekiston hududida yoki chet elda bilim olish yo'llari ochib berilgan.

Birinchi guruhdagilar — ularni ichida davlat siyosatiga qiziquvchanligi bilan ajralib turadigan, yoshligidan ta'lim tizimining u yoki bu yo'nalishlarida o'z tengqurlarini ichida rahbarlik lavozimlarida, yoshlarni nodavlat tashkilotlarida faoliyat olib borgan yoshlar, natijada ayrimlari davlat boshqaruv tizimining u yoki bu sohasida mehnat qilib, mamlakat va jamiyat rivojiga kamARBASTA bo'layotgan yoshlar.

Ikkinci guruhdagilar – yoshligidan kasb-hunarni o'zlashtirib kelgan, tadbirkorlikda ish yurita oladigan, ota-onasi, vasiysi, qarindosh-urug'larining biznes yo'lidiagi harakatlarida yordam berib, bu sohada ancha ko'nikmaga ega yoshlar; Bu toifadagi yoshlarga kasb-hunarlarini davom ettirishlari yoki biznes sohasida faoliyat yuritishlari uchun davlat tomonidan keng imkoniyatlardan foydalanib, o'z ish faoliyatini yo'lga qo'ygan yoshlar ham talaygina.

Uchinchisi, yoshligidan qarovsiz qolgan, ta'lim va kasb-hunar sohasiga hech qiziqmaydigan, yetarli bilimga ega bo'lмаган, kelajagi haqida tasavvur qila olmaydigan yoshlar; bular ikkiga bo'linadi; birinchisi jamiyatga zarari tegmaydi, kunlik pul topib, tirikchiligin o'tkazish bilan ovora; ikkinchisi esa noqonuniy hayotga moslashib bo'lgan, ayrimlari jamiyatga zarar yetkazib, ozodlikdan mahrum etilgan, reabilitatsiyadan o'tayotgan yoshlar.

Bu guruhdagi yoshlar davlat siyosatidagi ijobjiy faoliyatdan bebahra qolganlari hisoblanadi. Bunga sabab ular ayrim ota-onalar (buvilar, bobolar, vasiylar)ning, ta'lim sohasi vakillari, mahalla, voyaga yetmagan yoshlar bilan ishlovchi inspektorlarning sust faoliyati mevasi hisoblanadi. Ayrim ota-onalar konstitutsiyaviy burchlarini vijdonan vaqtida bajarmaganligi, ta'lim tizimida lavozimda o'tirgan ayrim rahbarlar ishni to'g'ri tashkil etilishini va nazoratini yetarli amalga oshirmagani, ayrim o'qituvchilarning umumiy o'rta ta'lim darsliklarini vijdonan o'quvchiga yetkazib bera olmagani, ta'lim va tarbiyani sust olib borilgani, ayrim mahallalarda talab asosida ishlar tashkil etilmagani, voyaga yetmaganlar bilan ishlovchi ayrim inspektorlarning ishni to'g'ri tashkil eta olmagani oqibatida bola voyaga yetganda o'z hayotini to'g'ri tashkil eta olmay, o'rta ko'chada qolib ketishiga sababchi bo'lmoqdalar.

To'rtinchisi, tug'ma yoki yoshligidan ma'lum nogironlikni yuklab olgan, sog'lomlashtirish va ijtimoiy himoyaga muhtoj yoshlar; ular ham ikkiga bo'linadi, birinchisi ma'lum hunar o'rgangan, kasb-korlikning ma'lum yo'naliishlari bo'yicha ko'nikmasi bor; ikkinchisi – hayotda o'z o'rnini topa olmaydigan, umrbod ijtimoiy himoyaga muhtoj yoshlar.

Nogironlikni kelib chiqishiga sabab nima? Respublika hududlarida "qon va qon yaratish a'zolari kasalliklari, nafas olish a'zolari, ovqat hazm qilish a'zolari, endokrin tizimi, siydik tanosil tizimi kasalliklari aholi orasida nisbatan ko'proq tarqalgan. Ayniqsa, katta yoshdagilarda yurak-qon tomir kasalliklari o'lim va nogironlikka olib keluvchi omil bo'lgan"[3]. Irsiy kasalliklar ham nogironlik sababchisi hisoblanadi.

Shuningdek, sog'lom hayotga bepisandlik, yoshlarni "Oila Kodeksi"da nikohga kirishdagi to'rtinchi talab — tibbiy ko'rikdan o'tishdagi mas'uliyatsizlik, sog'liqni saqlash tizimining ayrim nuqtalarida homiladorlik, tug'ishdagi asoratlar, chaqaloq parvarishi davridagi mas'uliyatsizlik, ota-onani farzandiga nisbatan belgilangan burchini to'la bajarmagani kabilar ham nogironlikka olib keladi.

Yoshlarni taxminan 4 guruhga bo'lib chiqildi. Bu guruhlarning barchasi davlat tomonidan ijtimoiy himoyaga muxtojlardir. Yoshlik davri tez o'tib ketadi, uni uzlusiz tarbiyasi katta imkoniyatlarga zamin bo'ladi.

Olingan natijalar tahlili. Yoshlarni ijtimoiy himoya qilishning o'ziga xos xususiyatlari quyidagilardan iborat:

- yoshlarni ijtimoiy himoya qilishda oila, ota-ona(vasiy), homiyalar tomonidan amalga oshirilishining tabiiyligi;
- yoshlar qatlaming barchasini u yoki bu darajada ijtimoiy himoya qilish zaruratining mavjudligi;
- nafaqat davlat, balki nodavlat tashkilotlari, ijtimoiy institutlar faoliyatini yanada kuchaytirishning dolzarbligi;
- korrupsiyadan xoli ijtimoiy himoya muhitini yaratish.

Xulosa. Aholini, ayniqsa yoshlarni ijtimoiy himoya qilish doimo dolzarb bo'lib kelgan. Taraqqiyotning yangi bosqichida esa ijtimoiy himoya masalasiga yangicha, innovatsion yondoshuv asosida "yangi O'zbekistonni o'z hayotidan rozi, baxtli insonlar mamlakatiga, har tomonlama rivojlangan ijtimoiy makonga aylantirish"[4] day konseptual g'oya, islohotlarimizning asosiy maqsadiga aylandi.

Литература/Адабиётлар/References:

1. <http://nhrc.uz/uz/news/akmal-saidov-yevroosiyo-ombudsmanlari-alyansi-majlisida-sozga-chiqd>
 2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 2020 yil 30 dekabr. -B. 4.
 3. Xadjamuratova M.X. Farg'ona vodiysining demografik tarixi. (1991-2006 yy.) Tarix fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. -Toshkent, 2011. -B. 147.
- Mirziyoev SH.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. -Toshkent: "O'zbekiston", 2021. -B. 195.

SCIENCEPROBLEMS.UZ

**ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ
ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ**

N^o S/7(3) – 2023

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг
долзарб муаммолари**” электрон
журнали 2020 йил 6 август куни 1368-
сонли гувоҳнома билан давлат
рўйхатига олинган.

Муассис: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
маъсуллияти чекланган жамияти

Таҳририят манзили:
100070. Тошкент шаҳри, Яққасарой
тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-
уй. Электрон манзил:
scienceproblems.uz@gmail.com
Боғланиш учун телефонлар:
(99) 602-09-84 (telegram).